

2-TOM, 3-SON

EYE/KO'Z SOMATIK KOMPONENTLI MAQOLLARNING SEMANTIKASI

Termiz davlat pedagogika instituti Xorijiy tillar nazariyasi va metodikasi kafedrası
o'qituvchisi

Boboqulova Nilufar Xayrullo qizi

boboqulovanilufar237@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada "Ko'z" somatik komponentli nomi ostida o'zbek va ingliz maqollarda uchraydigan ko'z somatizmini, uning semantikasini va ta'sirini o'rganadi. Maqola o'zbek va ingliz xalqlarining maqollari boyicha ko'zning ahamiyatini, ularning turli ma'nolarni ifodalash usullarini, ko'zlar bilan bog'liq maqollar tahlil qiladi. Maqola o'zbek paremiologiyasida va ingliz maqollarida ko'z somatizmini, uning metonimik va metaforik ma'nosini, turli maqollarda ishlatilishini, ko'zlar orqali insonning ichki xususiyatlarini tushunishni ko'rsatuvchi somatik komponentli maqollar tahlili.

Kalit so'zlar: ko'z, somatik, maqollar, semantika, xususiyatlar, farqi, metafora.

Termez state pedagogical institute Teacher of the department of foreign languages
theories and methods

Bobokulova Nilufar Xayrullo qizi

boboqulovanilufar237@gmail.com

ANNOTATION

The article explores the semantic aspects of the somatism "Eye" in the Uzbek and English linguistic cultures, analyzing its various meanings and expressions found in proverbs and sayings. It examines how the concept of "Eye" is utilized as a metaphor and metonymy in both languages, reflecting cultural attitudes and perceptions. The article highlights the significance of the "Eye" as a symbol of perception, emotions, and moral qualities, shedding light on its role in conveying deeper human experiences and values. Through a comparative analysis of Uzbek and English proverbs, the article provides insights into the cultural significance and linguistic nuances associated with the concept of "Eye" in these two linguistic traditions.

Key words: eye, somatic, proverbs, semantics, characteristics, difference, metaphor



2-TOM, 3-SON

KIRISH

Somatizmlar - bu odam yoki hayvon tanasi qismlarining asl ma'nosiga ega bo'lgan otlar. Bu atama biologiya va tibbiyotda "inson tanasi bilan bog'liq narsa" ma'nosida ishlatilishi mumkin va "aqliy" tushunchasiga qarama-qarshidir. Inson o'zini shaxs sifatida anglab, uning his-tuyg'ulari va tanasining qismlari orqali unga ko'rinadigan sezgilardan boshlanadi [1; B. 25].

Ko'z - tirik mavjudotning ko'rish a'zosi. Ko'zlar insonning eng muhim organlaridan biridir, chunki ular insonning dunyoni ko'rish uchun "oyna" hisoblanadi. Ko'zlar tufayli odam tashqi dunyo ob'ektlari haqida deyarli barcha ma'lumotlarni oladi, bu ko'zlar atrofdagi haqiqatni idrok etishning asosiy vositalaridir.

ASOSIY QISM

O'zbek paremiologiyasida ko'z komponenti asl ma'nosida quyidagi sifatlar yordamida aniqlandi: *ko'r, og'riq, dono, ahmoq, yaxshi, yomon*. Bu yerda bu ta'riflar belgi, ong bilan bog'liq inson xususiyatlarni beradi. Ingliz paremiologiyasida *eye/ko'z* somatik komponenti o'zining somatik ma'nosida quyidagi sifatlar bilan belgilanadi: *evil - badjahl, lovely chiroyli, bad-yomon, blind -ko'r*. Ingliz va o'zbek maqollarida ko'z tushunchasi insonning hasad tuyg'usini aks ettiradi: "*hasadli ko'zlar*", "*nafratli ko'zlar*"; "*the envies eyes*", "*jaundiced eyes*". Bu tuyg'u salbiy baholanib, sog'liq va xotirjamlik uchun zararli hisoblanadi. Ingliz maqollarida hasadgo'y odam ko'zlari hasad bilan boqsa ahmoq odam hisoblanadi: *An envious man is a squint-eyed fool* (Hasad - odamni ahmoq va noxolis kuzatuvchiga aylantiradi). O'zbek maqollarida esa hasadgo'ylikni oldini olish uchun quyidagi maqollar mavjud: *Ko'z-ko'z qilma, ko'z tegar, Maqtanchoqqa so'z tegar*; Yoki kimnidir ko'rolmaslik va hasadgo'ylikka nisbatan: *O'zi bo'lolmaydi, bo'lganni ko'rolmaydi* maqoli ishlatiladi. O'zbek va ingliz paremiologiyasida bu somatizmni harakat predmeti sifatida ko'rib, u ko'zlar harakatni o'zi bajarishi yoki ba'zi salbiy ta'sirlarni boshdan kechirishi mumkin bo'lgan fe'l birikmalarini hosil qiladi. Ko'zlar ko'z yoshlari bilan bog'liq bo'lib, u o'zbek va ingliz paremiologiyasida qayd etilgan: *Eyes that do not cry, do not see* (Ko'z yoshni ushlab turish, hayotni anglashni cheklaydi) yoki *Kulib gapirgan erkakdan, ko'z yosh bilan so'zlovchi ayoldan qo'rq*. Lekin ingliz tilida *eye/ko'z* somatik komponentli maqollarda fe'l so'z turkumi kelsa, lekin o'zbek tilida ko'pincha ot so'z turkumi keladi: *Og'riq-og'riq-ko'z og'rig'i, Har kimsaning o'z og'rig'i*.

Eyes/ko'z somatik komponentli bir qator paremiyalarda bu somatizm ham metaforik, ham metonimik ma'noda ishlatilishi mumkin. Ko'zlar qalbning ko'zgusi bo'lib, insonning turli ruhiy holatini bildiradi: *Ko'z ko'rmasa, ko'ngil sevmasa; Ko'zdan nari — ko'ngildan nari; Ko'zdan tushgan tildan ham tushar; Ko'z-inson qalbining ko'zgusi; Ko'z ko'zga*



2-TOM, 3-SON

tushsa, mehr qo'zg'alar; Ko'z ko'rganini qilar, Kosov — tutganini; Ko'z ko'rmasa, ko'ngil sevmas; Ko'z qayerda bo'lsa, Mehr ham o'sha yerda; Sevgining ko'zi ayb ko'rmas, Suygan yordan ko'z ketmas. Ko'ngil bu yerda yurak ma'nosini berib, unda sevgi his-tuyg'usini o'zida nomoyon etadi. Ingliz tilida ham xuddi shunday: *The eyes are the mirror of the soul* (Ko'z – qalb ko'z'gusi); *The eyes are the window of the soul* (Ko'z – qalblar chirog'i). Majoziy (*metaforik*) ma'noda bu maqol insonning ko'zlari uning haqiqiy his-tuyg'ularini, niyatlarini va xarakterini aks ettirishi mumkinligini anglatadi. Bu shuni anglatadiki, bironing ko'ziga qarash orqali uning ichki fikrlari va his-tuyg'ularini tushunish mumkin. Ko'zlar, bu nuqtai nazardan, samimiylik, halollik va hissiy chuqurlikni anglatadi: *Og'riq-og'riq-ko'z og'rig'i, Har kimsaning o'z og'rig'i; Yomon qiliqdan – ko'zga yosh, Yaxshi qiliqdan – og'izga osh.*

Eye/ko'z o'zbek va ingliz maqollari tashqi go'zallikni qoralashni aks ettiradi: *Qo'rqqoqning ko'zi katta, Ahmoqning — so'zi*; Ingliz maqollarida tashqi go'zallikdan ko'ra ichki go'zallik muhimroq ekanligini ko'rish mumkin. Nafaqat ingliz tilida, balki o'zbek tilida ham xuddi shunday: *Choose a wife by your ear, rather by your eye* (Xotinni ko'zing bilan emas, qulog'ing bilan tanla). Bu ikki maqol ma'nosi ham so'zlarning tuzilishi ham bir xil.

Ingliz maqollarida ko'zlar insonning sevgisini aks ettirsa, chinakam go'zal hisoblanadi: *Beauty is in the eye of the beholder* yoki *Beauty lies in lover's eyes* (Sevgan ko'zlarda chiroy aks etadi) [5; B.67].

O'zbek va ingliz tillaridagi maqollarda ko'zni metafora sifatida, oshqozonni to'ldirish darajasi deb tushunish mumkin, uning yordamida odamning ochko'zlik darajasini aniqlashni ko'rsatadi: *Nokasning o'zi to'ysa ham, ko'zi to'ymas; Ochning qorni to'ysa ham, ko'zi to'ymas; O'zi to'yamanning ko'zi to'ymas; O'zi egarning qoshida, Ko'zi qozonning oshida; O'tinchining ko'zi o'mchada; Qorinni to'yg'azish oson, Ko'zni to'yg'azish qiyin; Qorni ochga non bo'lsa bas, Ko'zi ochga dunyo yetmas.* Ingliz tilida esa: *A greedy eye enlarges the common purse* (Ochko'z ko'z umumiy hamyonni kengaytiradi) [2; B. 34]. *The greedy have a thousand eyes, the contented only one* (Ochko'zning ming ko'zi bor, qanoatkorning bir ko'zi bor). Ingliz maqollarida odamning ko'z o'ngida yolg'onga salbiy munosabat, uning ikki yuzlamachiligi, tovlamachilik bilan yomon niyatlarini yashirishga urinishlar kuzatilishi mumkin bo'lgan maqollar aniqlandi: *The world is built on lies, and the truth stings the eyes* (Dunyo yolg'on ustiga qurilgan, haqiqat esa ko'zni chaqadi) [10; B.81]. O'zbek tilida esa: *Ko'zi bilan o'padi, Dili bilan tepadi.*

XULOSA

Maqolada o'zbek va ingliz tilidagi "Ko'z" somatizmining ta'riflari, ularning turli ma'no va ifodalash shakllari, ularning jamiyatda muhimiyati va ta'siri haqida tushuncha



2-TOM, 3-SON

berilgan. O'zbek va ingliz xalqlari o'rtasidagi ko'z somatizmi va uning ma'noni ifodalash usullari, ma'naviyatga, adabiyotga va ma'rifatga oid muhim asosiy material sifatida qaraladi. Bu maqola o'zbek va ingliz tilidagi "Ko'z" somatizmining ta'riflari, ularning turli ma'no va ifodalash shakllari, ularning jamiyatda muhimiyati va ta'siri haqida tushuncha berilgan.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бакиров П.У. Семантика и структура номинацентрических пословиц (на материале русского, узбекского и казахского языков). – Ташкент: Фан, 2006. – 297 с.148
2. Бакиров П. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис... докт. филол. наук. – Ташкент, 2007. – 286 с
3. Пермяков Г.Л. Основы структурной паремиологии. М., 1988. 400 стр.
4. Реформатский А. А. Введение в языковедение - М.: Аспект Пресс, 1996 – 536 стр.
5. Concise Oxford English Dictionary/ Oxford University Press, 2008. – 1773 p.
6. English proverbs and proverbial phrases- Hazlitt, William Carew. London: Reeves and Turner, 1907.
7. Oxford Dictionary of English, 2nd edition, revised. - Oxford, New York. Oxford University Press – 2005.
8. English proverbs and proverbial phrases- Hazlitt, William Carew. London: Reeves and Turner, 1907.
9. Longman Dictionary of English Language and Culture. Fifth Edition. – Harlow: Pearson Education Limited, 2002.
10. Johnson A. Common English Proverbs. - London, 1965.

